



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI KASB-HUNAR O'RGANISHDA OTA-ONA – MAHALLA VA PEDAGOGLARNING O'RNI VA HAMKORLIGI

Sultanova Aziza Akmalovna
Republika imkoniyati cheklangan o'uvchilar
uchun ixtisoslashgan maxsus texnikum
Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda istiqomad qiluvchi imkoniyati cheklangan fuqarolarni erkin ijtimoiy muhitga moslashishi, ta'lim olishi, hunar o'rganishi, fuqorolik imkoniyatlaridan to'la qonli foydalanishiga yaratilgan huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, maktab, hamkorlik, inklyuziya, jamiyat, imkoniyat, g'amho'rlik.

Bizning oramizda hayot kechirib turgan shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma'naviyati yuksak, ruhi esa, juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida juda ko'p. Aksariyat hollarda ular kamsitishlardan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyat davlat zimmasiga yuklatiladi. Bu borada respublikamizda turli qonun va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda.

2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga ilk bora "Inklyuziv ta'lim" tushunchasi kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ 4860- sonli qarori, Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-son farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan xizmatlarni sifatini yaxshilash maqsadida qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi tuzildi 2020-2022-yillarda inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ bazani takomillashtirish, 2023- 2025-yillarda esa, inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish va o'qitishni takomillashtirish va ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari sonini





optimallashtirish ko'zda tutildi

Yurtimizning bir qator olimlari tomonidan nuqsonli bola oilasining alohida muammolari, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari mavzusida tadqiqot ishlari olib borgan bo'lib, ularning tadqiqoti ota-ona va nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik holatlarini o'rganish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Inklyuziv ta'lim vazifalari: ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilari ta'lim tashkilotlari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir [3, 6-b.].

Inklyuziv ta'limning afzalliklari shundan iboratki, har bir inson inklyuziv amaliyotdan foyda ko'radi. Inklyuziv ta'lim orqali bola mustaqilroq va o'ziga ishonadigan bo'lib yetishadi. O'z ichidagi qo'rquvlari kamayadi va tegishli ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadilar. Shuningdek, ular g'amxo'rlik va rahm-shafqatni ifoda etish qobiliyatidan xabardor bo'lishadi. Bu ta'lim muhitidan faqatgina bola emas, bolaning ham ota-onalari foyda ko'rishadi. Chunki bunungi kunda imkoniyati cheklangan bolasi bor ota-onaning birinchi tashvishlantirgan narsasi bolasining tengdoshlari qatoridan ajralib qolayotganligi va ta'lim olishi qiyin bo'layotganligidir. Hozirgi kunda ota-ona bolasi ta'lim olayotgan tashkilotga borib bema'lol bolasining ta'lim olayotgan muhitini ko'rishi va yordamlashishi mumkin.

Keyingi tarafini ko'radigan bo'lsak, ota-ona ko'pincha bolasi imkoniyati cheklangan bo'lganligidan uyaladi, Bunday vaziyatlarda ko'pincha bolani ota-onasi o'zim ta'lim va tarbiya beraman deb, bolasini ta'lim tashkilotlariga qo'shmaydi va odamlarni ko'ziga ko'rsatmaydi. Bola o'zi bilan o'zi qolib ketish natijasida, sezilarli darajada yomon oqibatlar kuzatiladi. Biz imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona hamkorligi qanchalik muhimligini ko'rib chiqamiz.

Maktab ta'lim tashkilotiga imkoniyati cheklangan bola keldi, uni guruh muhitiga moslashtirish – o'qituvchi uchun juda muhim va murakkab ish. Bunda o'qituvchi, albatta, psixolog bilan hamkorlikda bolaning aynan nimadan bola qiynaladi va u nimalarga qiziqadi shularni kuzatish orqali bilib olishi kerak. Bunda ota-ona hamkorligi ham o'qituvchi va psixolog hamkorligiga birlashgan holatda





bo'ladi.

Shu qatorda bizning maxsus texnikumda ham imkoniyati cheklangan o'quvchilar tahsil olishadi. Har xil turdagi hunarlarni egallab hayotda o'z o'rnini egallab kelmoqda. Bulardan tikuvchilik, to'quvchilik, kompyuter savodxonligi, poyabzal tikish, maishiy texnika va radiotexnika jihozlarini ta'mirlash kabi kasb va hunarlarni puxta egallab kelishmoqda

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integratsiyalash va rehabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Raspublikasi Prezidenti 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-sonli qarori.
3. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018.
4. Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari:
Ped. fanl. nomz. ... dis. Avtoref. – T., 2005. – 26 b.
5. http://www.newjournal.org/Volume-13_Issue-1_September_2022
6. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
7. <http://www.ombudsman.uz/oz/news/2021/06/12/nogironligi-bolgan-shaxslargatengimkoniyatlar>
8. <http://www.ombudsman.uz/oz/news/2021/06/12/nogironligi-bolgan-shaxslargatengimkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim-2>
9. <https://www.samdu.uz/uz/news/17499>